

YAPON MADANIYATIDA KINOYA FENOMENI: LINGVISTIK VA PRAGMATIK TAHLIL

Ilmiy rahbar: **Amirova Yulduz Qodirjon qizi**

O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Yapon filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: amirovayulduz95@gmail.com

Ruzmetova Kamolabonu Shodlikbek qizi

O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Yapon filologiyasi kafedrası magistratura bosqichi talabasi

E-mail: cvmillvs@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yapon madaniyatida kinoya (皮肉, hiniku) fenomeni lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kinoyaning asosiy turlari: voqeaviy kinoya (ストーリー的皮肉), vaziyatli kinoya (状況的皮肉) va nutqiy kinoya (皮肉発話) Yoshimura Akiko tomonidan taklif etilgan tasnif asosida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada kinoyani izohlashga doir asosiy nazariy yondashuvlar, jumladan Grice ning kooperatsiya prinsipi, Utsumi ning implitsit ifoda nazariyasi, Sperber va Wilson ning “echo” nazariyasi hamda Clark va Gerrig ning “rol o‘ynash” (pretending) modeli tahlil qilinadi. Bundan tashqari, Ota Izumi tomonidan ilgari surilgan kommunikatsion nosamimiylilik konsepsiyasi kinoya hodisasining pragmatik tabiatini yoritishda muhim nazariy asos sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada yapon tilidagi kinoya hodisasi turli kontekstlarda qo‘llanilishi, uning lingvistik ifoda shakllari va kommunikativ mexanizmlari ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *Kinoya, yapon madaniyati, pragmatika, bilvosita ifoda, nutqiy kinoya, vaziyatli kinoya, voqeaviy kinoya, kommunikativ nosamimiylilik, pragmatik ma‘no, kommunikativ strategiyalar*

ФЕНОМЕН ИРОНИИ В ЯПОНСКОЙ КУЛЬТУРЕ: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается феномен иронии (皮肉, hiniku) в японской культуре с лингвистической и прагматической точек зрения. В

исследовании анализируются основные типы иронии: сюжетная ирония (ストーリー的皮肉), ситуационная ирония (状況的皮肉) и речевая ирония (皮肉発話) на основе классификации, предложенной Ёсимурой Акико. Также в статье рассматриваются основные теоретические подходы к интерпретации иронии, включая принцип кооперации Грайса, теорию имплицитного выражения Уцуми, эхо-теорию Спербера и Уилсона, а также модель «притворства» Кларка и Геррига. Кроме того, концепция коммуникативной неискренности, предложенная Ота Идзуми, анализируется как важная теоретическая основа для объяснения прагматической природы иронии. В статье на основе научных источников исследуются особенности употребления иронии в японском языке в различных контекстах, а также её лингвистические формы и коммуникативные механизмы.

Ключевые слова: Ирония, японская культура, прагматика, косвенное выражение, речевая ирония, ситуационная ирония, сюжетная ирония, коммуникативная неискренность, прагматическое значение, коммуникативные стратегии

THE PHENOMENON OF IRONY IN JAPANESE CULTURE: A LINGUISTIC AND PRAGMATIC ANALYSIS

ABSTRACT

This article examines the phenomenon of irony (皮肉, hiniku) in Japanese culture from linguistic and pragmatic perspectives. The study analyzes the main types of irony narrative irony (ストーリー的皮肉), situational irony (状況的皮肉), and verbal irony (皮肉発話) based on the classification proposed by Yoshimura Akiko. The paper also reviews major theoretical approaches to the interpretation of irony, including Grice's Cooperative Principle, Utsumi's implicit display theory, Sperber and Wilson's echoic theory, and Clark and Gerrig's pretense theory. In addition, Ota Izumi's concept of communicative insincerity is discussed as an important theoretical framework for understanding the pragmatic nature of irony. Based on relevant scholarly sources, the article explores the use of irony in various contexts in the Japanese language, as well as its linguistic forms and communicative mechanisms.

Keywords: Irony, Japanese culture, pragmatics, indirect expression, verbal irony, situational irony, narrative irony, communicative insincerity, pragmatic meaning, communicative strategies

KIRISH

Til inson tafakkurining asosiy ifoda vositasi bo‘lishi bilan birga, ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar va kommunikativ strategiyalarni aks ettiruvchi murakkab tizimdir. Chet tilini mukammal egallash faqat grammatik va leksik birliklarni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi; balki ushbu tilga xos bo‘lgan pragmatik, madaniy va kontekstual xususiyatlarni ham chuqur anglashni talab etadi. Xususan, hazil va kinoya kabi murakkab nutq hodisalarini to‘g‘ri tushuna olish til egasining nafaqat lingvistik, balki madaniy kompetensiyasining ham yuqori darajada shakllanganini ko‘rsatadi. Chunki bunday ifodalar muayyan jamiyatning dunyoqarashi, ijtimoiy me‘yorlari va kommunikativ qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Ayniqsa, pragmatik hodisalar, ya‘ni nutq orqali bevosita aytilmagan ma‘nolarni anglash tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shunday hodisalardan biri sifatida kinoya (yapon tilida 皮肉 hiniku) alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Kinoya bu faqatgina “teskarisini aytish” emas, balki gapiruvchining ichki munosabati, bahosi va emotsional reaksiyasini bilvosita ifodalovchi murakkab kommunikativ strategiyadir. U ko‘pincha kontekst, umumiy bilimlar, nutq vaziyati va madaniy me‘yorlarga tayangan holda tushuniladi. Shu sababli kinoyani aniqlash va talqin qilish jarayoni ko‘p hollarda intuitiv tarzda amalga oshirilsa-da, uning mexanizmini ilmiy jihatdan izohlash ancha murakkab vazifa hisoblanadi.

Yapon madaniyatida kinoya fenomeni yanada o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu jamiyatda bevosita tanqid qilish yoki ochiq salbiy baho berish ko‘pincha ijtimoiy jihatdan nomaqbul deb hisoblanadi. Natijada, salbiy munosabatlar ko‘pincha bilvosita, yumshatilgan yoki kinoyaviy shaklda ifodalanadi. Bu esa kinoyaning yapon tilidagi funksional yukini yanada oshiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi — yapon tilidagi kinoya fenomenini lingvistik va pragmatik nuqtai nazardan kompleks tahlil qilish, uning asosiy turlari, tuzilishi va ishlash mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda Yoshimura Akiko tomonidan taklif etilgan kinoya tasnifi, Ota Izumi hamda Okamoto tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ nosamimiylik nazariyasi, shuningdek Anastasia Ozerova tomonidan tahlil qilingan zamonaviy nazariy yondashuvlar asos qilib olindi.

1. Kinoyaning tasnifi va lingvistik xususiyatlari

Kinoya fenomenini tizimli ravishda tushuntirish uchun uni turli mezonlar asosida tasniflash muhim ahamiyatga ega. Bu borada Yoshimura Akiko kinoyani uch asosiy turga ajratadi: voqeaviy kinoya (ストーリー的皮肉), vaziyatli kinoya (状況的皮肉) va nutqiy kinoya (皮肉発話).

1. Voqeaviy kinoya insonning ma'lum bir maqsadga erishish uchun qilgan harakati natijasida aynan teskari natija yuzaga kelganda paydo bo'ladi. Bunday holatlarda kinoya voqealar rivojining o'zida mujassam bo'lib, u til orqali emas, balki vaziyatning o'zidan kelib chiqadi. Bu turdagi kinoya inson tafakkurida sabab-natija bog'liqligining kutilmagan buzilishi bilan bog'liq.

例: 一生懸命ダイエットしたのに、体重が増えてしまった。

Tarjima: Juda qattiq parhez qilganimga qaramay, vaznim kamayish o'rniga oshib ketdi.

Izoh: Bu gapda shaxsning maqsadi (vazn kamaytirish) va natija (vazn ortishi) o'rtasida aniq zidlik mavjud. Aynan harakat va kutilgan natija teskariga chiqishi voqeaviy jarayon ichida yuz beradi. Shu sababli bu holat *ストーリー的皮肉* (voqealar rivojidadagi kinoya) sifatida talqin qilinadi.

2. Vaziyatli kinoya esa mavjud bilimlar va real holat o'rtasidagi qarama-qarshilik natijasida yuzaga keladi. Masalan, xavfsizlikni ta'minlashi kerak bo'lgan joyda xavf yuzaga kelishi (masalan, yong'in o'chirish bo'limida yong'in chiqishi) kinoyaviy effektni keltirib chiqaradi. Bu turdagi kinoya insonning dunyo haqidagi umumiy tasavvurlari va real voqelik o'rtasidagi nomuvofiqlik asosida shakllanadi.

例: 病院の医者が風邪をひいて休んでいる。

Tarjima: Shifoxonadagi shifokor shamollab qolib, ishga kelmayapti.

Izoh: Bu yerda kinoya individual harakat natijasida emas, balki "kutilyotgan normal holat" va real vaziyat o'rtasidagi zidlikdan kelib chiqadi. Shifokor sog'liqni saqlashi kerak bo'lgan shaxs, lekin aynan o'zi kasal bo'lib qolgan. Shu sababli bu holat *状況的皮肉* (vaziyatli kinoya) hisoblanadi.

3. Nutqiy kinoya esa bevosita til orqali ifodalanadi va eng murakkab tur hisoblanadi. Bu holatda gapiruvchi asl fikriga zid bo'lgan bayonotni ishlatadi, ammo tinglovchi kontekst asosida haqiqiy ma'noni anglaydi. Masalan, salbiy vaziyatda "juda yaxshi" kabi ijobiy ifoda ishlatilishi nutqiy kinoyaga misol bo'ladi.

例: なんて頼もしい人なんだろう、また約束を忘れたなんて。

Tarjima: Qanday ishonchli odam ekan-a, yana va'dasini unutib qo'yibdi.

Izoh: Bu gapda tashqi ko'rinishda ijobiy baho ("ishonchli odam") berilmoqda, lekin asl kontekstda (va'da unutilishi) salbiy munosabat yashirin ifodalangan. Ya'ni so'z va haqiqiy niyat o'rtasida ziddiyat mavjud. Shu sababli bu *皮肉発話* (nutq orqali kinoya) turiga kiradi.

Tahlil davomida shuni kuzatish mumkinki, kinoyaning turini aniqlash ko'pincha obyektiv mezonlarga emas, balki interpretatsiyaga bog'liq bo'ladi. Ya'ni bir xil vaziyat turli tinglovchilar tomonidan turlicha, masalan, vaziyatli yoki nutqiy kinoya

sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu holat kinoyaning qat'iy kategoriyalarga sig'maydigan, subyektiv idrokka bog'liq hodisa ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur tasnifga qo'shimcha ravishda, Ota Izumi kinoyani yanada chuqurroq tahlil qilib, uni kommunikativ jarayon bilan bog'laydi. Muallif kinoyaning oddiy ta'rifi sifatida "o'ylangan narsaning teskarisini aytish"ni keltirsa-da, bu ta'rif barcha holatlarni qamrab olmasligini ta'kidlaydi. Shu sababli u Okamoto tomonidan ilgari surilgan kommunikativ nosamimiylilik (不誠実性) nazariyasiga asoslanadi.

Ushbu yondashuvga ko'ra, kinoya bu gapiruvchining kutilgan natijasi amalga oshmagan vaziyatda, o'zining salbiy munosabatini bevosita emas, balki bilvosita tarzda ifodalashi jarayonidir. Bu yerda asosiy e'tibor nutqning yuzaki ma'nosi va asl ma'nosi o'rtasidagi tafovutga qaratiladi.

Ota Izumi kinoyani ikki asosiy turga ajratadi:

- Inversiya (逆転型) kinoya — ijobiy ifoda orqali salbiy baho berish.
- Inversiyasiz (非逆転型) kinoya — ochiq qarama-qarshilik bo'lmagan holatlar.

Inversiya kinoyasi eng tipik shakl hisoblanadi. Masalan, salbiy holatda "rahmat" deyish orqali aslida norozilik yoki tanqid ifodalanadi. Bu yerda baholashning "teskari aylanishi" yuz beradi.

Bundan tashqari, kinoya strukturasi ichida ijobiy baho, salbiy baho va noaniq baho elementlari mavjud bo'lib, ularning o'zaro joylashuvi kinoyaning kuchi va aniqligiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ijobiy bahodan keyin ochiq salbiy baho kelsa, kinoya yanada aniqroq bo'ladi, salbiy baho bilvosita berilsa, kinoya yanada nozikroq tus oladi. Bu esa kinoyaning nafaqat semantik, balki sintaktik va diskursiv darajada ham shakllanishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, kinoya faqat til birliklari orqali emas, balki kontekst, intonatsiya va nutq vaziyati orqali ham shakllanadi. Ayniqsa yapon tilida bilvositalik kuchli bo'lgani sababli, kinoyani tushunish ko'pincha lingvistik bilimlardan tashqari ijtimoiy va madaniy bilimlarni ham talab qiladi. Kinoyani tahlil qilish jarayonida shunday xulosaga kelish mumkinki, kinoya faqat "ma'no qarama-qarshiligi" emas, balki gapiruvchi va tinglovchi o'rtasidagi umumiy bilim darajasiga bog'liq hodisadir. Agar tinglovchi kerakli kontekst va fon bilimga ega bo'lmasa, kinoya umuman kinoya sifatida qabul qilinmaydi. Shu sababli kinoya individual nutq hodisasi emas, balki ikki tomonlama kognitiv hamkorlik mahsuli sifatida qaralishi mumkin.

2. Kinoya fenomenining nazariy yondashuvlari

Kinoya fenomenini tushuntirishga qaratilgan tadqiqotlar lingvistika va pragmatika sohalarida turli nazariy yo'nalishlarning shakllanishiga olib kelgan. Biroq mavjud nazariyalar ichida kinoyaning barcha ko'rinishlarini to'liq izohlab bera

oladigan yagona universal model mavjud emasligi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlanadi. Shu bois kinoya ko‘p komponentli va kompleks hodisa sifatida qaraladi.

2.1. Grice nazariyasi va kooperativlik prinsipi

Grice (1975) tomonidan ilgari surilgan kooperativlik prinsipi insonlar o‘rtasidagi muloqotning samarali kechishi uchun zarur bo‘lgan to‘rtta asosiy qoidani: sifat (quality), miqdor (quantity), uslub (manner) va aloqadorlik (relation) o‘z ichiga oladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, kinoya ayniqsa sifat prinsipi buzilganda yuzaga keladi, ya’ni gapiruvchi o‘zi ishonmaydigan yoki haqiqatga zid bo‘lgan bayonotni ataylab qo‘llaydi. Masalan, aniq salbiy vaziyatda ijobiy baho berish orqali gapiruvchi yuzaki ma’no va asl ma’no o‘rtasida tafovut yaratadi. Bu tafovut tinglovchi tomonidan kontekst asosida aniqlanadi.

Biroq keyingi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kinoya faqat sifat prinsipining buzilishi bilan cheklanmaydi. Ba’zi hollarda: ma’lumot yetishmasligi (miqdor prinsipi buzilishi), noaniqlik yoki ko‘p ma’nolilik (uslub prinsipi buzilishi), mavzuga mos kelmaslik (aloqadorlik prinsipi buzilishi) ham kinoyaviy effektini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, kinoyani faqat yolg‘on yoki haqiqatga zid bayonot sifatida talqin qilish yetarli emas.

2.2. Nutqiy akt va “noxolislik” yondashuvi

Haverkate (1990) kinoyani nutqiy akt nazariyasi doirasida tushuntirib, uni nutqiy aktning samimiylig sharti buzilishi bilan izohlaydi. Ya’ni gapiruvchi aytayotgan gapiga chin dildan ishonmaydi, biroq uni ataylab ishlatadi. Bu yondashuv Grice nazariyasiga yaqin bo‘lsa-da, u kinoyani faqat semantik darajada emas, balki nutqiy niyat (intention) bilan ham bog‘laydi. Biroq bu model ham barcha kinoya holatlarini izohlashga yetarli emas, chunki ba’zi kinoyaviy ifodalar aniq “yolg‘on” bo‘lmasligi mumkin.

2.3. Echo (aks-sado) nazariyasi

Sperber va Wilson (1981) tomonidan ilgari surilgan echo nazariyasiga ko‘ra, kinoya bu avval aytilgan fikr, ijtimoiy stereotip yoki umumiy bilimning “aks-sadosi” hisoblanadi. Gapiruvchi ushbu fikrni takrorlaydi, biroq unga nisbatan o‘z munosabatini (ko‘pincha tanqidiy yoki kinoyaviy) bildiradi. Masalan, kimdir ilgari aytilgan fikrni takrorlab, unga nisbatan salbiy emotsiya yoki masxara ifodalashi kinoyaviy effektini yuzaga keltiradi. Bu nazariyaning muhim jihati shundaki, u kinoyada gapiruvchining munosabati va pozitsiyasini markaziy o‘ringa qo‘yadi. Biroq uning asosiy cheklovi bu barcha kinoya holatlari ham “echo” shaklida bo‘lmasligidir.

2.4. “Rol o‘ynash” (pretence) nazariyasi

Clark va Gerrig (1984) kinoyani “rol o‘ynash” sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, gapiruvchi aslida ishonmaydigan fikrni “go‘yoki ishonayotgandek” ifodalaydi. Tinglovchi esa bu “rol”ni anglab, yashirin ma‘noni tushunadi. Bu model kinoyaning dramatik va performativ tomonini ochib beradi. Ayniqsa, intonatsiya, ohang va stilistik vositalarning roli bu yerda muhim hisoblanadi. Biroq barcha kinoyaviy ifodalarni “rol o‘ynash” sifatida izohlash mumkin emasligi sababli, ushbu nazariya ham cheklangan hisoblanadi.

2.5. “Ishora” (ほのめかし) va implikatura yondashuvi

Kumon-Nakamura, Glucksberg va Brown (1995) hamda Utsumi (2000) kinoyani kutilmaning buzilishi va bilvosita ishoralar orqali tushuntiradi. Bu yondashuvga ko‘ra, kinoya yuzaga kelishi uchun quyidagi shartlar mavjud:

- Gapiruvchining ma‘lum bir kutilmasi mavjud bo‘ladi
- Ushbu kutilma amalga oshmaydi
- Gapiruvchi bu tafovutni bilvosita ifodalaydi

Bu model kinoyaning paydo bo‘lish sababini, ya‘ni “boshlang‘ich nuqta”ni (trigger) aniqlashga harakat qiladi. Shu jihatdan u boshqa nazariyalarga nisbatan kengroq qo‘llanish imkoniyatiga ega. Biroq ayrim kinoya holatlarida aniq kutilma mavjud bo‘lmasligi sababli, bu nazariya ham universal emas.

Turli nazariyalarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida shunday xulosaga kelish mumkin: har bir nazariya kinoyaning faqat bitta jihatini tushuntiradi, chunki kinoya bir vaqtning o‘zida bir nechta mexanizm asosida ishlaydi. Ya‘ni real kommunikatsiyada kinoya yuzaga kelganda, u bir vaqtning o‘zida Grice prinsipi buzilishi, echo effekti va “rol o‘ynash” elementlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Shu sababli kinoyani bitta nazariya bilan cheklash uning haqiqiy tabiati va murakkabligini to‘liq ochib bera olmaydi.

3. Kinoyaning ikki bosqichli pragmatik modeli

Turli nazariy yondashuvlarni umumlashtirgan holda, kinoya fenomenini ikki bosqichli model orqali tushuntirish mumkin:

1-bosqich: *E’tibor va munosabat*. Gapiruvchi ma‘lum bir obyekt, hodisa yoki vaziyatga nisbatan e’tibor qaratadi va unga nisbatan emotsional yoki baholovchi munosabat shakllantiradi.

2-bosqich: *Noodatiy ifoda*. Ushbu munosabat odatiy nutq shakllari orqali emas, balki odatiy bo‘lmagan, bilvosita yoki qarama-qarshi ifoda orqali yetkaziladi.

Bu modelga ko‘ra, kinoya — bu:

(e’tibor + munosabat) → noodatiy ifoda → yashirin ma‘no

Mazkur yondashuvning afzalligi shundaki, u turli nazariyalardagi asosiy elementlarni yagona tizimga birlashtiradi. Kinoya bu yerda nafaqat til hodisasi, balki kognitiv va emotsional jarayon sifatida talqin qilinadi.

XULOSA

Yapon madaniyatida kinoya fenomeni lingvistik va pragmatik jihatdan murakkab, ko‘p qatlamli hamda kontekstga kuchli bog‘liq hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan nazariy yondashuvlar, jumladan, kinoyaning tasnifi, kommunikativ nohalollik konsepsiyasi, kooperativlik prinsipi, echo va “rol o‘ynash” nazariyalari, uning turli jihatlarini yoritib bergan bo‘lsa-da, ularning hech biri ushbu hodisani to‘liq izohlab bera olmasligi aniqlandi. Bu esa kinoyaning kompleks va ko‘p omilli ekanligini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kinoya yuzaki ifoda bilan yashirin ma‘no o‘rtasidagi tafovutga asoslanadi va shu orqali gapiruvchi o‘z munosabatini bilvosita tarzda ifodalaydi. Yapon tilida bu jarayon ijtimoiy me‘yorlar bilvositalik, hurmat kategoriyalari va kommunikativ ehtiyotkorlik bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois kinoya nafaqat lingvistik, balki madaniy va ijtimoiy fenomen sifatida ham qaraladi.

Mazkur ish natijalariga ko‘ra, kinoyani yuzaga keltiruvchi ikki asosiy omil ajralib turadi: birinchisi gapiruvchining ichki munosabati, ikkinchisi esa ushbu munosabatni ifodalash uchun tanlangan bilvosita nutq shakli. Ushbu ikki komponentning uyg‘unligi kinoyaning mohiyatini tashkil etadi. Shuningdek, kinoya faqat tanqid yoki istehzo vositasi emas, balki muhim kommunikativ strategiya hamdir. Yapon jamiyatida u ijtimoiy muvozanatni saqlash, bevosita qarama-qarshilikni yumshatish va muloyim tarzda fikr bildirish vositasi sifatida qo‘llaniladi. Biroq uning noto‘g‘ri talqin qilinishi kommunikativ tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, kinoyani tushuna olish til egallashning yuqori bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda nafaqat til bilimlari, balki kontekstni tez anglash, yashirin ma‘noni ajratish va gapiruvchining niyatini to‘g‘ri talqin qilish kabi murakkab kognitiv jarayonlar ishtirok etadi. Shu sababli kinoya pragmatik kompetensiyaning yuqori darajali ko‘rsatkichi sifatida qaraladi. Kinoyani tushunish darajasi til bilimidan ko‘ra ko‘proq pragmatik sezgirlik bilan bog‘liq. Ya‘ni bir xil tilni bilgan shaxslar ham uni turli darajada anglaydi. Bu esa kinoyani til kompetensiyasining alohida komponenti sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, kinoya fenomeni til, tafakkur va madaniyat kesishgan nuqtada shakllanadigan murakkab tizim bo‘lib, uni chuqur anglash uchun lingvistik bilimlar bilan bir qatorda kontekstual va madaniy kompetensiya ham zarur. Shu

jihatdan, yapon tilidagi kinoyani o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, madaniyatlararo kommunikatsiyani chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Attardo, S. Irony as relevant inappropriateness. 1999.
2. Clark, H. H. & Gerrig, R. J. On the Pretense Theory of Irony. 1984.
3. Grice, H. P. Further Notes on Logic and Conversation. 1978.
4. Grice, H. P. Logic and Conversation. 1975.
5. Haverkate, H. A Speech Act Analysis of Irony. 1990.
6. Kreuz, R. J. & Glucksberg, S. How to be sarcastic: The echoic reminder theory of irony. 1989.
7. Kumon-Nakamura, S., Glucksberg, S. & Brown, M. How about irony?. 1995.
8. Ota Izumi (太田いずみ). 関わる要素についての一考察：皮肉表現以外の要素に着目して. 2010.
9. Ozerova, Anastasia. 言語的皮肉の現象についての理論とその原理. 2011.
10. Sperber, D. & Wilson, D. Relevance Theory. 1981 (rev. 2012).
11. Utsumi, Akira. Implicit Display Theory of Irony. 2000.
12. Yoshimura Akiko. 感じる皮肉と伝える皮肉. 2007.